

TA'LIM SIFATINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Aziza Amonova Saydulloyevna

JDFU "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar xususida ta'kidlangan. Xalqaro baholash dasturlarining ta'lim sifatimizni oshirishda muhim ahamiyat kaab etayotgani haqida batafsil bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *baholash tizimi, tajriba, ta'lim, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, monitoring*

KIRISH

Ta'lim sohasi yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda qatnashganiga bir muncha vaqt o'tdi va "o'tgan davr mobaynida qanday ishlar amalga oshirildi" degan savol tug'ilishi tabiiy. Xususan, respublikadagi pandemiya tufayli karantin sharoitiga qaramasdan, onlayn tarzda barcha tayanch maktablar uchun seminarlar tashkil etilib, unda Milliy markaz mutaxassislari tomonidan o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik ijodiy-kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish mavzularida taqdimotlar o'tkazildi. 2021-yilda tashkil etilishi kutilgan o'quvchilarning savodxonligini baholash jarayoniga tayyorgarlik ishlari boshlandi. Rejalashtirilayotgan mazkur keng ko'lamlı tadbirda manfaatdor tashkilotlar sifatida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, Avloniy nomidagi rahbar va mutaxassis xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti va Toshkent davlat pedagogika universiteti ishtirok etadi. Ma'lumot uchun, Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quvchilarining savodxonligini baholash dasturining faoliyatini yurtimizda yo'lga qo'yish jarayonida tayanch oliy ta'lim muassasasi sifatida ishtirok etdi. PISA dasturiga ko'ra, o'quvchilarning savodxonligini aniqlash maqsadida yurtimiz maktablarining 9-sinf o'quvchilari o'rtasida ona tili va matematika fanlaridan maxsus sinovlar o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra xalqaro o'quvchilar savodxonligi reytingida mamlakatimiz yoshlarining o'rni belgilanadi.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim - tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi

talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jahon ta'lim reytinglarida mamlakatimizni yuqori pog'onalarga olib chiqish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish bu - ta'lim tizimimizning juda muhim ekanligini anglatadi. IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg'unlik asosida baholashni o'z ichiga oladi, bu esa dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilarning emas, balki ushbu qatlamning vakili sifatida tanlab olingan o'quvchilarning savodxonligi obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi.

Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. O'qituvchilarning va o'quvchilarning PISA va PIRLS tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida Ta'lim inspeksiyasi, uning huzuridagi Milliy markaz hamda xalq ta'limi tizimidagi mutaxassislar bilan hamkorlikda qator ishlar amalga oshirildi. Lekin o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda muammolar to'laligicha bartaraf etilgani yo'q. Avvalo, xalqaro baholash dasturlari haqida barcha pedagoglar, umumta'lim muassasasi o'qituvchilari to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Bu borada yaratilgan qo'llanmalar turi va soni ko'paytirilsa va ta'lim muassasalariga yetkazilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari haqida o'quvchilar ham batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari, bu dasturlarning ahamiyatini anglab yetishlari muhim masalalardan biridir. Buning uchun darsliklarga xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) haqidagi ma'lumotlar va shu dasturlar uchun tayyorlangan topshiriqlar kiritilishi kerak, deb o'ylayman. Darslikdagi yangi ma'lumotlar o'quvchining dunyo miqyosida o'z tengdoshlari bilan raqobatbardosh bo'la olishi uchun imkon yaratadi. O'quvchilarning xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etishi uchun maktablarda alohida to'garaklar

tashkil etilishi, bu to'garaklar, albatta, tajribali pedagoglar tomonidan o'tilishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning ma'lum bir vaqt orasida (masalan bir oyda bir marta) imtihon topshirishlari va bu doimiy ravishda nazorat qilinsa, xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishishimiz uchun sharoit yaratilgan bo'lar edi. Bundan tashqari, xalqaro baholash dasturlarida beriladigan topshiriqlar, masalan, PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo'lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xshash topshiriqni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA talablariga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga ularni chalg'itib qo'yishi ham mumkin. Shuning uchun e'tiborimizni o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qaratishimiz kerak bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning dunyo miqyosida yetakchi o'rinlarni egallashlari uchun tinmay izlanish, yuksak bilim va mahoratga ega bo'lish va bu bilimimizni yoshlar ongiga singdirishimiz darkor. Shubhasiz, globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanayotgan davr talabiga mos ravishda birgalikda harakat qilinsa, xorij tajribalari o'rganilsa ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi. Bu borada Rossiya Federatsiyasida ham o'ziga xos tajriba shakllangan. Rossiya tajribasi misolida milliy baholash tizimini yaratish hamda mamlakat va hudud miqyosida ta'lim sifatini baholash tizimining ilmiy - metodik asoslari bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida vebinar tashkil etildi. Unda ta'lim sifatini baholashga doir xalqaro tajribani o'rganish hududiy monitoring tadqiqotlari o'tkazish va uning natijalaridan ta'lim sifatini oshirishda foydalanish yuzasidan fikr-mulohazalar tinglandi. Xo'sh, Rossiya tajribasini o'rganish, milliy va hududiy miqyosda ta'lim sifatini baholashning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim muassasalarida erishilgan natijalarni mustaqil baholash vositalari bo'yicha erishgan yutuqlarini ko'rib chiqamiz. PIRLS bo'yicha Rossiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yutuqlarga erishishidagi o'sish nuqtalari har bir sinfda ta'limni differensiyalashga kuchli e'tibor berilishida kuzatiladi. Bu borada aksariyat birinchi sinf o'quvchilarining ta'limni muvaffaqiyatli boshlashi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lishiga erishishga alohida e'tibor berilishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan kelib chiqib ta'lim jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta'minlash, turli xil matnlarni o'qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish, tushunib o'qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirishdi. Rossiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilayotgan ishlarda PIRLS darslari o'qish tezligini nazorat qilishdan ko'ra tushuntirib o'qishga urg'u berish kuzatiladi, o'qish savodxonligi funksional savodxonlikning integrativ komponenti sifatida anglanmoqda. Matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiy-ilmiy va ma'lumotnomalarni o'qishni o'rgatishda o'ziga xoslik ishlab chiqarilmoqda. O'qish savodxonligini baholashning turli modellari metapredmet natijasi sifatida yaratilgan. Bundan tashqari, nufuzli iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot

tashkiloti tomonidan uch yilda bir o‘tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, finlandiyalik maktab o‘quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko‘p kitob o‘quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, finlandiyalik maktab o‘quvchilari tabiiy fanlar bo‘yicha dunyoda ikkinchi, matematika bo‘yicha esa beshinchi o‘rinni egallashdi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlandiyalik maktab o‘quvchilari darsga u qadar ko‘p vaqt ajratishmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.A.Ismailov va b. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnomalar (Matematika fani, tabiiy yo‘nalishidagi fanlar, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlari va mazkur sohalar mutaxassislari uchun mo‘ljallangan axborotnoma). Ta‘lim inspeksiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2020-yil
2. A.B.Radjiev va boshq. O‘quvchilarning savodxonligining baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi. Qo‘llanma. Toshkent, Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi -2019
3. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (Eds.). (2017). TIMSS 2019 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center
4. OECD (2013), PISA 2012 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, reading, Science, Problem Solving and Financial Literacy, Publishing.
5. O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori.
6. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.
7. D.Norboyeva, S.Akbarova, M. Baymuratova “Tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilar bilimni baholashga mo‘ljallangan mashq daftari”.(A, B, C) Toshkent - 2020.
8. Sh. Ismoilov va b. “Ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar to‘g‘risida ” mavzusidagi seminar –trening materiallari. Toshkent -2019
9. Министерство образования и науки РФ федеральная служба по надзору в сфере образования и науки основные результаты международного исследования PISA-2015
10. Национальный центр по постановлению международных исследований по оценке качества образования.

11. Тетрадь для подготовки к международным исследованиям почитательской грамотности.

